O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI JIZZAX FILIALI

ISSN 2181-3884

ZAMONAVIY ILMIY-TEXNIK TADQIQOTLAR

xalqaro jurnali

Vol. 2 No. 3

2026

International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research

Volume 2 Issue 3
2026

Zamonaviy ilmiy-texnik tadqiqotlar xalqaro jurnali

3-son
2026

Международный журнал современных научно-технических исследований

Том 2 Выпуск 3
2026

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETINING JIZZAX FILIALI

Xalqaro ilmiy-elektron jurnali

Tahrir kengashi raisi:

P.f.d., prof., O.X. Turakulov

Bosh muharrir:

A.A. Abdumalikov

Tahrir kengashi mas’ul kotibi:

D.M. Jomurodov

Tahririyat hay’ati:

1. B.f.d., prof., S. Murodova (O’zMU Jizzax filiali, UZB)
2. P.f.n., prof., S. Usmanov (O’zMU Jizzax filiali, UZB)
3. T.f.n., dos., S. Tavboev (O’zMU Jizzax filiali, UZB)
4. F.f.d., prof., N. Djusupov (O’zDJTU, UZB)
5. T.f.d., dos., S. Ruzimov (TTPU, UZB)
6. P.f.d., prof., G. Lekerova (SKU, KZH)
7. DSc., Ali Coşkan (ASUI, TR)
8. T.f.d., prof., D. Irgasheva (TATU, UZB)
9. T.f.d., prof., I. Siddikov (NRU TIIAME, UZB)
10. T.f.n., dos., S. Eshkabilov (NDU, US)

Zamonaviy ilmiy-texnik tadqiqotlar xalqaro elektron jurnali (International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research) O’zMU Jizzax filiali Kengashining qaroriga asosan tashkil etilib, 2022-yil 9-sentabrda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №038200 raqami bilan ro‘yxatidan o‘tkazilgan, shuningdek davlatlararo standartlar talabi asosida O‘zbekiston Milliy kutubxonasidan jurnal uchun 2181-3884 ISSN raqami olingan.

© “O‘zMU Jizzax filiali” – 2023

Tahririyat manzili:

130100, Jizzax viloyati, Jizzax shahri,
Sh.Rashidov Shox ko‘chasi, 259-uy.

International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research (IJCSTR)
VOLUME 2 ISSUE 3/ ISSN 2181-3884

BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA EMOTSIONAL LIDERLIK QOBILIYATINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK MODELI

Ismoilova Nozima O'ktam qizi

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, magistrant.
e-mail: ismoilovanozima12@gmail.com

Annotatsiya.

Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida emotsional liderlik qobiliyatini shakllantirishning pedagogik modeli nazariy va amaliy jihatdan asoslangan. Emotsional liderlikning emotsional-anglash, o'zini boshqarish, empatik, kommunikativ va liderlik-tashabbuskorlik komponentlari, ularni baholash mezonlari va ko'rsatkichlari yoritilgan. Shuningdek, emotsional liderlikni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari, metodlari, shakllari va vositalari tizimlashtirilgan. Model o'quvchilarning emotsiyalarni anglash va boshqarish, empatiya, samarali muloqot, hamkorlik hamda jamoada tashabbus ko'rsatish ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich ta'lim, emotsional liderlik, emotsional intellekt, ijtimoiy-emotsional kompetensiya, pedagogik model, pedagogik shart-sharoitlar, empatiya, o'zini boshqarish, kommunikativ kompetensiya, liderlik qobiliyati, mezon, ko'rsatkich, tajriba-sinov.

ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ ФОРМИРОВАНИЯ СПОСОБНОСТИ К ЭМОЦИОНАЛЬНОМУ ЛИДЕРСТВУ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

Исмоилова Нозима Уктам кизи

Ташкентский государственный педагогический университет имени Низами, магистрант.

Аннотация.

В статье теоретически и практически обоснована педагогическая модель формирования способности к эмоциональному лидерству у учащихся начальных классов. Раскрыты компоненты эмоционального лидерства: эмоциональная осознанность, саморегуляция, эмпатия, коммуникативность и лидерская инициативность, а также критерии и показатели их оценки. Кроме того, систематизированы педагогические условия, методы, формы и средства формирования эмоционального лидерства. Модель направлена на развитие у учащихся навыков осознания и управления эмоциями, эмпатии, эффективного общения, сотрудничества и проявления инициативы в коллективе.

Ключевые слова: начальное образование, эмоциональное лидерство, эмоциональный интеллект, социально-эмоциональная компетентность, педагогическая модель, педагогические условия, эмпатия, саморегуляция, коммуникативная компетентность, лидерские способности, критерий, показатель, опытно-экспериментальная работа.

A PEDAGOGICAL MODEL FOR DEVELOPING EMOTIONAL LEADERSHIP SKILLS IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS

Ismoilova Nozima O'ktam qizi

Nizami Tashkent State Pedagogical University, Master's Student.

Abstract.

This article provides a theoretical and practical rationale for a pedagogical model aimed at developing emotional leadership skills in primary school students. The study examines the key components of emotional leadership, including emotional awareness, self-regulation, empathy, communication, and leadership initiative, as well as the criteria and indicators used to assess them. It also systematizes the pedagogical conditions, methods, forms, and tools for developing emotional leadership. The proposed model is

designed to enhance students' abilities to recognize and regulate emotions, demonstrate empathy, communicate effectively, collaborate with others, and take initiative within a group.

Keywords: primary education, emotional leadership, emotional intelligence, social-emotional competence, pedagogical model, pedagogical conditions, empathy, self-regulation, communicative competence, leadership skills, criterion, indicator, experimental study.

Kirish. Bugungi kunda ta'lim jarayonida o'quvchilarning akademik bilimlari bilan bir qatorda ularning ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ijtimoiy-emotsional ta'lim o'quvchilarning o'z emotsiyalarini anglash va boshqarish, ijobiy munosabatlarini shakllantirish, boshqalar bilan samarali muloqot qilish va hamkorlikda faoliyat yuritish hamda mas'uliyatli qarorlar qabul qilish kabi ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan. Mazkur kompetensiyalar o'quvchining nafaqat shaxsiy rivojlanishi, balki uning xulq-atvori, tengdoshlari bilan munosabatlari va ta'lim jarayonidagi faol ishtiroki uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Boshlang'ich ta'lim bosqichi ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarni shakllantirish uchun muhim rivojlanish davri hisoblanadi. Aynan kichik maktab yoshidagi bolalarda o'z emotsiyalarini anglash va boshqarish, xatti-harakatlarini nazorat qilish, tengdoshlari bilan muloqot qilish, hamkorlikda faoliyat yuritish hamda ijtimoiy vaziyatlarga mos munosabat bildirish ko'nikmalari faol rivojlanadi. Tadqiqotlarda o'zini o'zi boshqarish, refleksiya, yordam so'rash va ijobiy munosabatlarning boshlang'ich ta'lim davridagi ahamiyati ta'kidlangan [1].

So'nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlar ijtimoiy-emotsional ta'lim dasturlarining samaradorligini tasdiqlamoqda. Xususan, boshlang'ich maktab o'quvchilari ishtirokida o'tkazilgan tadqiqotlarda ijtimoiy-emotsional ta'lim dasturlari o'quvchilarning o'zini anglash, munosabatlarni boshqarish va mas'uliyatli qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirishi, xulqiy muammolarni kamaytirishi hamda ta'lim natijalariga ijobiy ta'sir ko'rsatishi aniqlangan [2; 3].

Ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarning rivojlanishi o'quvchining tengdoshlari bilan munosabatlari va guruhdagi faoliyati bilan bevosita bog'liq bo'lib, bu jihat liderlik salohiyatini shakllantirish uchun ham muhim asos hisoblanadi. Tadqiqotlar boshlang'ich maktab yoshida ijtimoiy liderlikning shakllanishi ijobiy o'zini idrok etish, prosotsial xulq-atvor va samarali shaxslararo munosabatlar bilan aloqador ekanligini ko'rsatadi [4]. Shu nuqtayi nazardan, emotsional liderlikni boshlang'ich sinf o'quvchisining o'z emotsiyalarini anglash va boshqarish, boshqa insonlarning hissiy holatini tushunish, empatik munosabat o'rnatish, samarali muloqot qilish, hamkorlikda faoliyat yuritish, ijtimoiy mas'uliyatni namoyon etish va jamoada ijobiy tashabbus ko'rsatish qobiliyatlarining integrativ majmui sifatida talqin qilish mumkin. Bunday yondashuvda emotsional liderlik emotsional intellekt, ijtimoiy-emotsional kompetensiya va liderlikning o'zaro integratsiyasi asosida shakllanadigan kompleks pedagogik-psixologik hodisa sifatida namoyon bo'ladi.

Biroq mavjud tadqiqotlarning aksariyatida o'zini o'zi boshqarish, ijtimoiy-emotsional ta'lim, emotsional kompetensiyalar yoki ijtimoiy liderlik alohida yo'nalishlar sifatida o'rganilgan. Ushbu kompetensiyalarning boshlang'ich sinf o'quvchilarida emotsional liderlikni shakllantirish nuqtayi nazaridan yaxlit pedagogik tizim sifatida integratsiyalashuvi, uning tarkibiy komponentlari, pedagogik shart-sharoitlari, metod va vositalari hamda shakllanganlik darajasini aniqlash mezonlarining tizimlashtirilishi yetarlicha tadqiq etilmagan.

Shundan kelib chiqib, mazkur tadqiqotning maqsadi boshlang'ich sinf o'quvchilarida emotsional liderlik qobiliyatini shakllantirishning pedagogik modelini ishlab chiqish va uning nazariy hamda amaliy asoslarini yoritishdan iborat. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda emotsional liderlik qobiliyatini shakllantirishning mazmuni, pedagogik shart-sharoitlari, metod va vositalarini hamda uning shakllanganlik darajasini aniqlash mezon va ko'rsatkichlarini o'zaro bog'liq tizim sifatida ishlab chiqish dolzarb ilmiy-pedagogik muammo sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur muammoni hal etish boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning nafaqat individual emotsional rivojlanishini, balki ularning jamoada samarali faoliyat yuritishi va ijobiy liderlik pozitsiyasini egallashini ta'minlovchi pedagogik imkoniyatlarni kengaytiradi.

METODLAR. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida emotsional liderlik qobiliyatini shakllantirishning pedagogik modelini ishlab chiqish va uning samaradorligini aniqlash maqsadida tajriba-sinov ishlari tashkil etildi. Tadqiqot umumta'lim maktabining 3-sinf o'quvchilari ishtirokida amalga oshirildi.

Tadqiqotda jami 50 nafar o'quvchi qatnashdi. Ularning 25 nafari tajriba guruhi, 25 nafari esa nazorat guruhi sifatida tanlandi. Guruhlarni shakllantirishda o'quvchilarning yosh xususiyatlari, o'quv faoliyati va sinf tarkibining o'xshashligi inobatga olindi. Tajriba guruhi bilan emotsional liderlik qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan maxsus pedagogik faoliyat olib borilgan bo'lsa, nazorat guruhida ta'lim-tarbiya jarayoni amaldagi dastur asosida tashkil etildi.

Birinchi bosqich — diagnostik bosqichda o'quvchilarning emotsional liderlik qobiliyatining dastlabki holati o'rganildi. Ushbu bosqichda pedagogik kuzatish, suhbat va so'rovnoma metodlaridan foydalanildi. O'quvchilarning emotsiyalarini aniqlash va boshqarish, tengdoshlari bilan hamkorlik qilish, empatiya ko'rsatish hamda tashabbuskorlik darajasi baholandi.

Ikkinchi bosqich — shakllantiruvchi bosqichda ishlab chiqilgan pedagogik model asosida maqsadli ta'limiy va tarbiyaviy ishlar olib borildi. Mazkur bosqichda "Emotsional liderlik nima?", "His-tuyg'ularimiz", "Liderlik va liderlik

emotsiyalari" mavzularida mashg'ulotlar, treninglar, interfaol o'yinlar va guruhiy faoliyatlar tashkil etildi. Mashg'ulotlar davomida o'quvchilarda o'z emotsiyalarini anglash va boshqarish, tengdoshlarining hissiy holatini tushunish, hamkorlikda faoliyat yuritish va jamoada tashabbus ko'rsatish ko'nikmalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratildi.

Uchinchi bosqich — nazorat bosqichida o'quvchilarning emotsional liderlik qobiliyatidagi o'zgarishlar qayta diagnostika asosida aniqlandi. Olingan natijalar tajriba boshidagi ko'rsatkichlar bilan qiyosiy tahlil qilindi.

Tadqiqotda nazariy tahlil, pedagogik kuzatish, suhbat, so'rovnoma, pedagogik tajriba-sinov va qiyosiy tahlil metodlaridan foydalanildi. Emotsional liderlik qobiliyatining shakllanganlik darajasini aniqlashda quyidagi mezonlar asos qilib olindi:

- emotsiyalarni anglash va boshqarish;
- empatik munosabat o'rnatish;
- kommunikativ faollik;
- hamkorlikda ishlash qobiliyati;
- tashabbuskorlik va liderlik xatti-harakatlari.

Mazkur mezonlar asosida o'quvchilarning emotsional liderlik qobiliyati yuqori, o'rta va past darajalar bo'yicha baholandi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligini ta'minlash maqsadida tajriba va nazorat guruhlari ko'rsatkichlari o'zaro taqqoslandi.

Tajriva-sinov ishlari bosqichi

1-jadval

Bosqich	Mazmuni	Muddat
Diagnostik	O'quvchilarning emotsional liderlik darajasini aniqlash	2025-yil Sentabr-oktabr
Shakllantiruvchi	Maxsus mashg'ulotlar, treninglar va interfaol faoliyatlarni tashkil etish	2025-yil oktabr 2026-yil yanvar
Nazorat	Yakuniy diagnostika va natijalarni tahlil qilish	2026-yil fevral

MUHOKAMA. Boshlang'ich ta'limda ijtimoiy-emotsional kompetensiyalarni tizimli ravishda rivojlantirishning pedagogik ahamiyatini ko'rsatadi. CASEL modelida ham o'zini anglash, o'zini boshqarish, ijtimoiy anglash, munosabat ko'nikmalari va mas'uliyatli qaror qabul qilish o'zaro bog'liq kompetensiyalar sifatida qaraladi [7].

Mazkur yondashuv ishlab chiqilgan pedagogik modelning mazmuni bilan uyg'un bo'lib, unda emotsional liderlik individual emotsional ko'nikmalar bilan cheklanmasdan, empatiya, muloqot, hamkorlik va tashabbuskorlik bilan bog'liq yaxlit kompetensiya sifatida talqin qilindi.

Tadqiqot natijalaridagi ijobiy o'zgarishlar ijtimoiy-emotsional ta'limga oid avvalgi ilmiy natijalar bilan ham mos keladi. Xususan, 213 ta maktab dasturi va 270 mingdan ortiq o'quvchini qamrab olgan meta-tahlilda ijtimoiy-emotsional ta'lim dasturlari o'quvchilarning ijtimoiy-emotsional ko'nikmalari, xulq-atvori va akademik natijalarida ijobiy o'zgarishlar bilan bog'liqligi aniqlangan [5].

Keyingi kuzatuvlarni qamrab olgan meta-tahlil ham maktabga asoslangan ijtimoiy-emotsional ta'lim dasturlarining ijobiy ta'siri dastur yakunidan keyin ham saqlanishi mumkinligini ko'rsatgan [7].

Shu nuqtayi nazardan, mazkur tadqiqotda qo'llangan trening, rolli o'yin, guruhiy faoliyat va refleksiv mashqlarni emotsional liderlikning turli komponentlarini birgalikda rivojlantiruvchi vositalar sifatida baholash mumkin.

Biroq tadqiqotning ayrim cheklovlari ham mavjud. Jumladan, tajriba-sinovda ishtirokchilar sonining nisbatan kamligi va tadqiqotning bitta yosh guruhi doirasida olib borilgani natijalarni kengroq populyatsiyaga umumlashtirish imkoniyatini cheklaydi. Shu sababli kelgusidagi tadqiqotlarda turli sinf bosqichlari, maktablar va hududlarni qamrab olgan kengroq tanlanmadan foydalanish maqsadga muvofiq.

NATIJALAR. ***Pedagogik modelning mazmuni.*** Tadqiqot natijasida boshlang'ich sinf o'quvchilarida emotsional liderlik qobiliyatini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik model ishlab chiqildi. Modelning mazmuni o'quvchilarning emotsional holatini anglash va boshqarish, tengdoshlarining hissiy holatini tushunish, empatik munosabat o'rnatish, samarali muloqot qilish, hamkorlikda faoliyat yuritish hamda ijobiy tashabbus ko'rsatish ko'nikmalarini izchil rivojlantirishga qaratildi.



3-rasm. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida emotsional liderlik qobiliyatini shakllantirishning pedagogik modeli.

Modelda emotsional liderlikning mazmuni beshta o'zaro bog'liq komponent asosida belgilandi: emotsional-anglash, o'zini boshqarish, empatik munosabat, kommunikativ-hamkorlik va liderlik-tashabbuskorlik. Mazkur komponentlar ijtimoiy-emotsional ta'limning o'zini anglash, o'zini boshqarish, ijtimoiy anglash, munosabatlarni rivojlantirish va mas'uliyatli qaror qabul qilish kabi asosiy kompetensiyalari bilan mazmunan uyg'unlashadi [7].

Modelning amaliy qismida pedagogik shart-sharoitlar, metod va tashkiliy shakllar hamda diagnostik mezonlar o'zaro bog'landi. Xususan, psixologik xavfsiz muhit yaratish, o'quvchi faolligini qo'llab-quvvatlash, individual yondashuv, hamkorlikka asoslangan faoliyat va refleksiv mashqlardan foydalanish emotsional liderlikni shakllantirishning muhim pedagogik shartlari sifatida belgilandi.

Shuningdek, model uch bosqichda amalga oshirildi: diagnostik, shakllantiruvchi va nazorat bosqichlari. Diagnostik bosqichda o'quvchilarning boshlang'ich holati aniqlanib, shakllantiruvchi bosqichda maxsus mashg'ulotlar, treninglar, rolli o'yinlar va guruhiy faoliyatlar tashkil etildi. Nazorat bosqichida esa o'quvchilarning yakuniy ko'rsatkichlari qayta diagnostika asosida aniqlandi.

Emotsional liderlik qobiliyatini baholash mezonlari.

O'quvchilarning emotsional liderlik qobiliyatini baholash uchun beshta asosiy mezon belgilandi. Mazkur mezonlar o'quvchining nafaqat individual emotsional holatini, balki uning tengdoshlari bilan munosabati va jamoaviy faoliyatdagi xatti-harakatlarini ham baholash imkonini beradi.

Emotsional liderlik qobiliyatining mezon va ko'rsatkichlari

2-jadval

Mezonlar	**Asosiy ko'rsatgichlar**
Emotsiyalarni aniqlash va boshqarish	O'z hissiyotlarni anglash, nomlash va nazorat qilish
Empatik munosabat	Tengdoshining hissiy holatini tushunish va yordam ko'rsatish
Kommunikativ faollik	Muloqotga kirishish, tinglash va fikr bildirish
Hamkorlikda ishlash	Guruhda ishlash, o'zaro yordam va kelishuv
Tashabbuskorlik va liderlik	Tashabbus korsatish, mas'uliyat olish va boshqalarni ijobiy faoliyatga jalb etish

Baholash natijalari yuqori, o'rta va past darajalar asosida talqin qilindi. Yuqori daraja o'quvchining mazkur ko'nikmalarni mustaqil va barqaror namoyon etishini, o'rta daraja ularni ayrim pedagogik ko'mak asosida namoyon etishini, past daraja esa ko'nikmalarning yetarli darajada shakllanmaganligini ifodalaydi.

Tajriba-sinov natijalari. Pedagogik modelning amaliy samaradorligini aniqlash maqsadida tajriba va nazorat guruhlarining natijalari qiyosiy tahlil qilindi. Tajriba guruhida 25 nafar, nazorat guruhida 25 nafar 3-sinf o'quvchisi ishtirok etdi.

O'quvchilarning empatik munosabatlarini aniqlashda tengdoshining hissiy holatini tushunish, unga yordam berish va qo'llab-quvvatlashga tayyorlik kabi ko'rsatkichlarga e'tibor qaratildi.

Empatiyani aniqlash testi boʻyicha dastlabki va yakuniy natijalar, %
3-jadval

Daraja	*Tajriba guruhi dastlabki*	*Tajriba guruhi yakuniy*	*Nazorat guruhi dastlabki*	*Nazorat guruhi yakuniy*
Yuqori	16	40	20	24
Oʻrtachadan yuqori	24	32	20	24
Oʻrta	36	20	32	32
Past	16	8	20	16
Juda past	8	0	8	4
Jami	100	100	100	100

Jadval ma'lumotlari tajriba guruhida oʻquvchilarning empatik kompetensiyalarida sezilarli ijobiy siljish yuz berganini koʻrsatadi. Jumladan, yuqori darajadagi oʻquvchilar ulushi 16 foizdan 40 foizgacha, ya'ni 24 foiz punktga oshgan.

Oʻrtachadan yuqori darajadagi koʻrsatkich ham 24 foizdan 32 foizgacha oshgan. Shu bilan birga, oʻrta darajadagi oʻquvchilar ulushi 36 foizdan 20 foizgacha, past darajadagi oʻquvchilar ulushi esa 16 foizdan 8 foizgacha kamaygan. Juda past darajadagi oʻquvchilar ulushining 8 foizdan 0 foizgacha kamayishi ham ijobiy natija sifatida baholanadi.

Tajriba guruhida yuqori va oʻrtachadan yuqori darajadagi oʻquvchilarning umumiy ulushi dastlabki bosqichdagi 40 foizdan yakuniy bosqichda 72 foizgacha oshgan. Nazorat guruhida esa mazkur koʻrsatkich 40 foizdan 48 foizgacha oʻzgargan.

Natijalar tajriba guruhida amalga oshirilgan maxsus pedagogik faoliyat oʻquvchilarning empatik munosabatlarini rivojlantirishga ijobiy ta'sir koʻrsatganini koʻrsatadi.

XULOSA.

Tadqiqot natijasida boshlangʻich sinf oʻquvchilarida emotsional liderlik qobiliyatini shakllantirishga yoʻnaltirilgan pedagogik model ishlab chiqildi. Model maqsad, pedagogik shart-sharoitlar, komponentlar, metod va shakllar, bosqichlar, baholash mezonlari hamda natijaning oʻzaro bogʻliqligiga asoslandi.

Emotsional liderlikning emotsional-anglash, oʻzini boshqarish, empatik munosabat, kommunikativ-hamkorlik va liderlik-tashabbuskorlik komponentlari oʻquvchilarning individual va jamoaviy faoliyatini kompleks rivojlantirishga xizmat qilishi belgilandi.

Tajriba-sinov natijalarida tajriba guruhida yuqori va oʻrtachadan yuqori empatik koʻrsatkichga ega oʻquvchilar ulushi 40 foizdan 72 foizgacha oshgani, past va juda past darajadagi oʻquvchilar ulushi esa 24 foizdan 8 foizgacha kamaygani aniqlandi. Nazorat guruhidagi oʻzgarishlar esa nisbatan kamroq boʻldi.

Shunday qilib, ishlab chiqilgan pedagogik modelni boshlangʻich ta'lim jarayonida oʻquvchilarning emotsional va ijtimoiy kompetensiyalarini rivojlantirish, tengdoshlari bilan samarali hamkorlik qilish hamda ijobiy liderlik xatti-harakatlarini shakllantirishga xizmat qiluvchi pedagogik vosita sifatida qoʻllash mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. OECD. *Beyond Academic Learning: First Results from the Survey of Social and Emotional Skills.* – Paris: OECD Publishing, 2021.
2. OECD. *Social and Emotional Skills for Better Lives: Findings from the OECD Survey on Social and Emotional Skills 2023.* – Paris: OECD Publishing, 2024.
3. Durlak J. A., Mahoney J. L., Boyle A. E. What We Know, and What We Need to Find Out About Universal, School-Based Social and Emotional Learning Programs for Children and Adolescents // *Psychological Bulletin.* – 2022. – Vol. 148, No. 11–12. – P. 765–782.
4. Cipriano C. et al. The State of Evidence for Social and Emotional Learning: A Contemporary Meta-Analysis of Universal School-Based SEL Interventions // *Child Development.* – 2023.
5. Durlak J. A., Weissberg R. P., Dymnicki A. B., Taylor R. D., Schellinger K. B. The Impact of Enhancing Students' Social and Emotional Learning: A Meta-Analysis of School-Based Universal Interventions // *Child Development.* – 2011. – Vol. 82, No. 1. – P. 405–432.
6. Taylor R. D., Oberle E., Durlak J. A., Weissberg R. P. Promoting Positive Youth Development Through School-Based Social and Emotional Learning Interventions: A Meta-Analysis of Follow-Up Effects // *Child Development.* – 2017. – Vol. 88, No. 4. – P. 1156–1171.
7. Collaborative for Academic, Social, and Emotional Learning (CASEL). *CASEL's SEL Framework.* – 2020.